

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

## **ANGLIYA KUTUBXONALARIDAGI ALISHER NAVOIY ASARLARI MANBALARI**

**Ozoda Tojiboyeva**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va  
adabiyot universiteti dotsenti, filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: ozoda2677@mail.ru*

**Annotatsiya:** Dunyodagi ko‘plab nufuzli kutubxonalarda, fondlarda Sharq kitobatchilik san’atining noyob nuxxalari hisoblangan qo‘lyozmalar saqlanadi. Ular sirasidan turkiy adabiyotni mazmun va sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqqan, asarlari shoh asar sifatida eng mohir xattotlar tomonidan ko‘chirilgan Alisher Navoiy salmoqli qismni tashkil etadi. Navoiy asarlarining Yevropa davlatlaridan Angliya davlatiga borib qolishining o‘z tarixi, sabablari bor. Mazkur manbalar haqida ma’lumot bergen ingliz olimlari ham o‘z davrida qirollik saroyidagi kutubxonalarda faoliyat olib borishgan. Maqolada XIX asrda o‘sha fondlardagi kitoblarni kataloglashtirgan va o‘z navbatida Alisher Navoiy asarlari manbalari haqida ma’lumot bergen olimlarning faoliyati haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** qo‘lyozma, manba, bibliografiya, tavsif, tasnif.

**Аннотация:** Во многих престижных библиотеках и фондах мира хранятся дополнительные записи, наполненные шедеврами восточного литературного искусства. Значительную часть среди них составляет Алишер Навои, который поднял турецкую литературу на более высокий уровень по содержанию и качеству и чьи произведения копировали самые искусные каллиграфы. Переезд произведений Навои из стран Европы в Англию имеет свою историю и причины. Английские учёные, предоставившие информацию об этих источниках, также работали в своё время в библиотеках королевского дворца. В статье приведены сведения о работах ученых, каталогизировавших книги этих фондов в XIX веке, и даны сведения о творчестве Алишера Навои.

**Ключевые слова:** ссылка, источник, библиография, описание, классификация.

**Annotation:** Many prestigious libraries and foundations around the world hold additional records filled with masterpieces of Eastern literary art. A significant part of the book was composed by Alisher Navoi, who raised Turkish literature to a higher level of content and quality and created copies of all artistic calligraphy. The move of Navoi’s work from European countries and England has its own history and reason. The English scientists who provided information about these sources also worked at one time in the libraries of the Royal Palace. In the state information about the works of the teachings that cataloged the books of ethics funds in the 19th century, and information about the work of Alisher Navoi.

**Key words:** link, source, bibliography, description, classification.

Dunyodagi hech bir adibning asari Alisher Navoiy asarlaridek keng tarqalib ketgan emas. So‘z mulkinining sultonii, shoh va shoir Alisher Navoiyning asarlari o‘z

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

davridanoq chor atrofga yoyilgani, dastlabki devoni muxlislari tomonidan, yana Oqquyunlilar saroyida ikkinchi bir devoni ko‘chirilgani ham buning yorqin dalilidir. Alisher Navoiy asarlarining keng tarqalishida ikki omilni nazarda tutsak bo‘ladi. Ustoz adiblar aytganlaridek, Sharq adabiyotininng yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirib, yana bir karra yakunlagan buyuk adib Alisher Navoiyning epik va lirik asarlaridagi chuqur mazmun, yuksak badiiy mahorat natijasi bo‘lsa, keyingi yana bir jihat o‘rtaslar uyg‘onish davri, Hirot kitobatchilik san’atining eng oliv namunasida, mohir xattotlar tomonidan ko‘chirilishi, musavvirlar tomonidan ishlov berilishi va kitoblarning shoh asar sifatida baland qiymatga ega bo‘lishidir. Agar Alisher Navoiy asarlarining dunyodagi manbalariga e’tibor berilsa, ko‘proq qirollik kutubxonalarida, fondlarida jamlangan. O’sha yerda ishlovchi olimlar tomonidan tavsiflanib, fanga ma’lum qilingan. Parij qirollik kutubxonasi, Sankt-Peterburg imperator kutubxonasi, Avstriya, Vengriya fondlaridagi manbalarning o‘rganilishi ham olimlarni Yevropadagi ilk sharqshunos, turkolog, navoiyshunos sifatida ilmga tanitdi. Mazkur fondlardagi har bir material fanda qimmatli manba hissoblanadi.

Adib asarlarining Yevropada o‘rganilishida ingliz olimlarining ham hissasi katta. Albatta, dastlabki paytlarda matnni o‘rganish manbadan boshlangan. Angliya fondlarida Alisher Navoiy asarlari haqida ilk marta batafsil ma’lumot bergen, ularni kataloglashtirgan olim Charlz Riyo (Charles Pierre Henri Rieu) (1820 – 1902)dir. To‘g‘ri, Angliyada Navoiy hayoti va faoliyatini o‘rganish ancha ilgariroq boshlangan. Biroq Charlz Riyo manbalarni tavsif qilgan olim sifatida alohida o‘rin tutadi. Asli shvetsariyalik bo‘lgan olimning Sharq adabiyotiga qiziqish bildirishi va bu yo‘lda samarali faoliyatni olib borishiga uning tahsil davomida olgan bilimlari zamin yaratdi. U dastlab Jeneva akademik universiteti, so‘ngra Bonn universitetida mashhur ustozlar qo‘lida tahsil olib, sanskrit tilini, nemis, arab, fors, turkiy tillarni o‘zlashtiradi. Arab shoiri Abul Ala hayoti, ijodi manbalari asosida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi (Bonn, 1843). Fransiyada tuzilgan “Osiyo jamiyati” a’zoligiga (1844) qabul qilinadi. Sankt-Peterburgda nemis tilida sanskrit lug‘ati matnini tayyorlash jarayonida Bodlean kutubxonasidagi noyob manbani olish uchun Oksfordga boradi va 1847-yildan e’tiboran Britaniya muzeyida Sharq qo‘lyozmalari bo‘limiga ishga kiradi. London va Kembrijda arab tilidan professor lavozimida dars beradi. U yigirma yillik muzeydag‘i faoliyati davomida Sharq qo‘lyozmalarini kataloglashtirib, ilk marta ularni tartibga solgan sharqshunos bo‘ldi. Riyo Sharq adabiyoti manbalarini jamlagan “Fors qo‘lyozmalar katalogi” (4 jild, 1879-95) va “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi” (1888)ni tuzadi. Har ikki to‘plam Islom Sharqiga oid ma’lumotlar ombori bo‘lib, chuqur izlanishlar natijasida yuzaga chiqqan. Kitobda tavsiflanayotgan asar va uning muallifi,

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

asar mazmuni, tuzilishi haqida ma’lumot berib o‘tilgan. Shu ma’noda o‘z davridan keyingi rus va dunyo sharqshunoslari o‘z ishlarida Charlz Riyoning mazkur kitobiga tayanadi, har bir asarning Angliyadagi ilk tadqiqotchisi sifatida e’tirof etishadi. Alisher Navoiy asarlari manbalari tavsifi mazkur to‘plamning har ikkisidan o‘rin olgan.

Charlz Riyo tavsifi haqidagi ma’lumotlar dastlab rus sharqshunosi A.A.Semyonovning 1940-yilda tuzgan “Alisher Navoiy asarlari va u haqidagi adabiyotlar bibliografik ko‘rsatkichiga doir manbalar” (Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем) nomli bibliografik kitobida berilgan (3). Xususan, Charlz Riyo turkiy qo‘lyozmalar katalogida Alisher Navoiyning 13 ta asari haqida ma’lumot bergani aytildi. Keyingi davr navoiyshunoslari Semyonov ma’lumotiga tayanganlar va Charlz Riyoni Angliyadagi ilk navoiyshunos sifatida e’tirof etishadi.

Olim “Turkiy qo‘lyozmalar katalogi”ning “Turkiylar yoki Sharqiylar turklar” (263-302) nomli oltinchi qismida Britaniya muzeyidagi Navoiy asarlarining barcha manbalarini to‘liq tavsiflab chiqqan. Semyonov garchi Navoiy asarlarining 13 tasini tavsiflab ko‘rsatgan bo‘lsa ham kitobdagi lug‘atlarga doir ma’lumotlar ham Alisher Navoiy ijodi manbalari asosida yoritilgan. Jumladan, Leksikografiya qismida Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlar “Abushqa”, “Sanglox”, “Maboni ul-lug‘at” ta’riflanadi. “Abushqa”ning (7886) Vena, Myunxen, Sankt-Peterburg nussxalari, uning Pave de Kurteyl, Velyaminov-Zernov tomonidan o‘rganilishi borasida batafsil ma’lumot beradi. “Sanglox”ni (№2892) ta’riflashda ham Mirzo Mehdi Astrobodiyning saroydag‘i faoliyati, lug‘atni tuzish sabablari va lug‘atchilik tarixi haqida batafsil ma’lumot bergen. Garchand kitob bibliografik xarakterda bo‘lsa ham olim har bir ma’lumotni berish uchun ko‘plab manbalarni ko‘rib chiqqan. Aniq tarixiy ma’lumotlarni ilmiy dalillagan.

“Turk nasri” qismida “Majolis un-nafois” tavsiflanib, eski o‘zbek yozuvida misollar beriladi. Tavsiflarda Navoiy chig‘atoy shoirlari ichidan turkiy tilning ravnaqi yo‘lida eng ko‘p ijod qilgani, “Boburnoma”dagi ma’lumotga ko‘ra Navoiy Hirotda tug‘ilgan bo‘lsa ham, lekin Farg‘onaning bosh shahri Andijon shevasida ijod qilgani aytildi. Sakkizta majlisning tarixiy ma’lumotlariga qadar batafsil sharhlanib, fransuz olimi Belin tomonidan tarjima qilingani eslatiladi. Har sakkiz majlisni qisman sanab o‘tadi. Oltinchi majlisga berilgan Muhammad Solihning tarjimai holini batafsilroq yoritadi. Yana u haqidagi manbalar “Matlayi sa’dayn”, “Tuhfayi Somiy”, “Otashkadayı Ozariy” asarlarida uchrashini aytadi. Shuningdek, Sakkokiy va boshqa shoirlar ta’rifida ham “Majolis un-nafois”da ta’riflangani eslatiladi. Abdujamil kotib tomonidan Alisher Navoiyning g‘azallaridan terib olib ko‘chirilgan “Tuhfat us-salotin” kitobi ham tavsiflangan. “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub” va “Xamsa” dostonlari

# **“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”**

**mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari**

to‘liq tavsiflangan. “Devoni Navoiy” nomi bilan bir qancha qo‘lyozmalari manbalari, tavsif etilgan asarlarning yozilish sabablari, vaqtin, tarixiy sharoit va shaxslar, asar mazmuni, xorijdagi tarjimalari va nashri kabi qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tgan. Jumladan, “Majolis un-nafois”ning 3 ta, “Mahbub ul-qulub”ning 1 ta, “Xamsa”ning 4 ta, devonlarining 9 ta qo‘lyozma nusxasi tavsiflangan. Kitob turkiy tilli adabiyotning Yevropadagi manbalari, xususan Alisher Navoiy ijodi manbalari, o‘rtasidagi tarixi va turkiy adabiyotning xorijda ilk o‘rganilishi, Navoiy ijodiga munosabati haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manba hisoblanadi.

Charlz Riyoning “Catalogue of the persian manuscripts in the British museum” (Britaniya muzeyidagi forsiy tilli qo‘lyozmalar katalogi) nomli katalog 1895-yil Londonda nashr etilgan. Unda jami 425 ta qo‘lyozma haqida ma’lumot berilgan. Shundan XVII asrda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (№104) tazkirasi forsiy tiliga Shoh Ali B. Abdul Ali tomonidan ko‘chirilgani, Din Muhammadxon davrida forsiy tilga e’tibor kuchaygani va shunga ko‘ra Alisher Navoiy tazkirasini forsiy tilga o‘girish ehtiyoji tug‘ilgani haqidagi ma’lumotlarni berib o‘tadi. Umuman, Charlz Riyo yetuk manbashunos olim sifatida Sharq adabiyoti, xususan, Navoiy ijodi manbalarini XIX asrdayoq kataloglashtirgan va ingliz tilida izohlari bilan dunyoga tanitishda katta hissa qo‘sghan edi. Mazkur to‘plamlar Navoiy asarlarining Angliyadagi manbalari haqida ma’lumot berishi jihatidan ham muhim hisoblanadi.

Bodlean kutubxonasida qo‘lyozma manbalarni kataloglashtirgan nemis olimi Eduard Sachau (1845-1930) tomonidan tuzilgan (“Catalogue of the persian, turkish, hindustani, and pushtu manuscripts”, 1889)da Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Sanglox” ta’riflangan xolos. Garchi bitta manba ta’riflangan bo‘lsa-da, deyarli Navoiyning hamma zamondoshlari asarlarida Navoiyning nomi eslab o‘tiladiki, kitobdagi manbaga aloqador shaxslar, davr tarixining yoritilib o‘tilishiga katta o‘rin ajratilgan. Umuman, mazkur ma’lumotlar Sharqni Yevropaga tanitishda muhim ahamiyatga ega. bugun bu ma’lumotlar tadqiqotlarning aniq va samarali bo‘lishiga hissa bo‘lib qo‘shiladi.

## **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Charles Rieu. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum. – London, 1888. – 345 p.
2. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. – London, 1895.
3. Семенов, А. А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Ташкент, 1940.
4. Eduard Sachau. Catalogue of the persian, turkish, hindustani, and pushtu manuscripts. – Bodlean, 1889.